

Bilimdonlar bellashuvi

“Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti va Toshkent shahar Shayxontohur tumani 324-sonli maktab xamkorlikdagi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ijtimoiy –ma‘naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish maqsadidagi chora tadbirlar rejasi bajarilishi “Elektrotexnologiyalar va elektr jixozlaridan foydalanish” kafedrasining navbatdagi tadbirlarini o‘tkazdi. “Elektrotexnologiyalar va elektr jixozlaridan foydalanish” kafedrasida dotsenti O‘.Xaliqnazarov, Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti fakulteti Ma‘naviyat-ma‘rifat ishlari bo‘yicha dekan muovini Sh.O.Berdiyev va “Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish” yo‘nalishi 2 bosqich 202 a-guruhning iqtidorli talabalari N.Ziyayev va J.Tursunovlar bilan birgalikda 324-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 8-9-sinf o‘quvchilari bilan Konstitutsiya mening hayotimda mavzusida “Zakovat” o‘yinlari o‘tkazildi. Zakovatda 8-9-sinfning a‘lochi o‘quvchilaridan iborat bo‘lgan 5 ta jamoa shakllantirildi. Berilgan savollar o‘quvchilar o‘rtasida qiziqarli tarzda o‘tkazildi va haqiqiy ma‘noda bilimlar bellashuvi bo‘lib o‘tdi. Zakovat natijasiga ko‘ra, eng yaxshi bilimdon guruhlariga I, II, III-o‘rinlarga ajratib olindi va dotsent O‘. Xaliqnazarov “QSXET” fakulteti dekanatining faxriy yorliqlari va o‘zining esdalik kitoblari bilan tabrikladi.



“Qishloq va suv xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti Ma‘naviyat-ma‘rifat ishlari bo‘yicha dekan muovini Sh.O.Berdiyev axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov